

ABU UBAYDA IBN JARROH YODGORLIK MAJMUASI

To'xtayeva Sevinch Ural qizi

Qarshi Davlat universiteti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15871001>

Annotatsiya. Ushbu maqolada islom tarixining buyuk sahobalaridan biri bo'lgan Abu Ubayda ibn Jarroh (r.a.) nomi bilan bog'liq yodgorlik haqida ma'lumot beriladi. U Payg'ambar Muhammad (s.a.v.)ning eng yaqin sahobalaridan biri bo'lib, arab qo'shinlarining mashhur sarkardasi, sodiqligi va halolligi bilan tanilgan. Unga "Bu ummatning omini" (ya'ni eng ishonchli odami) degan unvon berilgan. Abu Ubayda ibn Jarroh yodgorligi asosan Iordaniyadagi Ghor vodiysida joylashgan bo'lib, bu joy u vafot etgan hudud sifatida muqaddas hisoblanadi. Mazkur yodgorlik nafaqat diniy ziyoratgoh, balki tarixiy-madaniy ahamiyatga ega maskan sifatida ham qadrlanadi. Yodgorlik Iordaniya hukumati tomonidan saqlanib kelinmoqda va u musulmon dunyosida sahobalarga bo'lgan hurmatning timsoli sifatida e'tirof etiladi.

Maqolada bu yodgorlikning tarixiy asoslari, me'moriy xususiyatlari hamda diniy-ma'naviy ahamiyati tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Abu Ubayda ibn Jarroh, sahoba, Islom tarixi, yodgorlik, Iordaniya, Ghor vodiysi, musulmon merosi, ziyoratgoh, diniy-madaniy obida, sahobalar maqbarasi, tarixiy yodgorliklar, halollik va sadoqat, ummatning omini.

МЕМОРИАЛЬНЫЙ КОМПЛЕКС АБУ УБАЙДЫ ИБН ДЖАРРАХА.

Аннотация. В этой статье представлена информация о памятнике, связанном с именем Абу Убайды ибн Джарраха (р.а.), одного из великих сподвижников исламской истории. Он был одним из ближайших сподвижников Пророка Мухаммада (мир ему и благословение), известного полководца арабских армий, известного своей преданностью и честностью. Ему был присвоен титул «Амин этой уммы» (т.е. самый надежный человек). Мемориал Абу Убайды ибн Джарраха расположен в основном в долине Гор в Иордании, которая считается священной как место, где он умер.

Этот памятник ценится не только как место религиозного паломничества, но и как место исторического и культурного значения. Памятник охраняется иорданским правительством и признан в мусульманском мире как символ уважения к сподвижникам.

В статье анализируются исторические основы, архитектурные особенности, религиозное и духовное значение этого памятника.

Ключевые слова: Абу Убайда ибн Джаррах, сподвижник, исламская история, памятник, Иордания, долина Гор, мусульманское наследие, место паломничества, религиозный и культурный памятник, гробница сподвижников, исторические памятники, честность и верность, аминь уммы.

ABU UBAYDA IBN JARRAH MEMORIAL COMPLEX

Annotation. This article provides information about the monument associated with the name of Abu Ubayda ibn Jarrah (r.a.), one of the great companions of Islamic history. He was one of the closest companions of the Prophet Muhammad (pbuh), a famous commander of the Arab armies, known for his loyalty and honesty. He was given the title "Ameen of this Ummah" (i.e. the most trustworthy person). The Abu Ubayda ibn Jarrah Memorial is located mainly in the Ghor Valley in Jordan, which is considered sacred as the area where he died.

This monument is valued not only as a religious pilgrimage site, but also as a place of historical and cultural significance. The monument is preserved by the Jordanian government and is recognized in the Muslim world as a symbol of respect for the companions. The article analyzes the historical foundations, architectural features, and religious and spiritual significance of this monument.

Keywords: *Abu Ubaydah ibn Jarrah, companion, Islamic history, monument, Jordan, Ghor Valley, Muslim heritage, pilgrimage site, religious and cultural monument, tomb of the companions, historical monuments, honesty and loyalty, the amen of the ummah.*

Abu Ubayda ibn al-Jarroh yodgorlik majmuasi — Qashqadaryo viloyati Qarshi shahri Gulshan MFYda joylashgan madaniy meros obyekti, diqqatga sazovor joy. Obyekt davri: XIV asr. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining „Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida“ 2018-yil 19-dekabrda PQ-4068-son qaroriga muvofiq O‘zbekiston moddiy va madaniy merosining ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatiga kiritilgan — davlat muhofazasiga olingan(1)

Abu Ubayda ibn al-Jarroh yodgorlik majmuasi XIV asrda Qarshi shahrining janubiy-sharqiy qismida barpo etilgan. 1965—1973-yillarga oid arxiv hujjatlarida qayd qilinishicha, ziyoratgohda hech qanday yozuvi va belgisi bo‘lmagan qabr toshi topilgan. XIX asr oxirlari XX asr boshlarida qabrning shimoli-g‘arbiy tomonida qorilar ibodat qiladigan masjid yonida pastroq naqshin mi-nora joylashgan bo‘lgan. Masjid 1926-yilda buzib tashlangan.(2) Masjidning janubida yuzasi 16 kvadrat metrni tashkil etgan hovuz bo‘lib, u osti zinali, betolashtirilgan holda hozirgi kungacha saqlangan. Jumladan, xaroba bo‘lib yotgan mazkur ziyoratgoh 2000-yilda qayta tiklandi, qabr ustida maqbara bunyod qilindi, kirish joylariga darvozaxona qurilib, yo‘laklar ta‘mirlandi, atrofi obodonlashtirildi, ziyoratchilar uchun jamoatxonalar barpo qilindi[3].

Qadimiy mozarotga, nakql etilishicha, Amir Temur arab mamlakatlariga (Iordaniya) qilgan yurishlarida mashhur tabib Abu Ubayda bin al-Jarroh xokini olib kelib dafn etgan. Rivoyatlarning birinchisida Xoja Ubayda Jarroh Amir Temur saroyida jarroh bo‘lib xizmat qilgan, deb naql etilgan. Ikkinchi rivoyatda esa, Xoja Ubayda Xudoyzod qishlog‘ida yashaganligi va kishilarni jarrohlik usuli bilan davolaganligi kursatilgan[4].

Abu Ubayda bin al-Jarroh nomiga islomiy manbalarda munosib urin berilgan. Abdulaziz Mansur tarjimasidagi „Sifot us-Soffa“ kitobida ul zoti tarif haqida shunday yozilgan „Bu zot payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom tomonidan bashorat berilgan o‘nta jannatiylardan biridir. Rasululloh bilan barcha g‘azotlarda qagnashgan. Ikki o‘gli Yazid va Umar yosh o‘lib ketganlar. Onasining nomi Xind binti Jobir. Nasabi Fexr ibn Molikka borib, Rasulullohning bobolariga qo‘shilib ketadi. Iordaniyaning Amavos degan joyida 58 yoshida vabo kasali bilan vafot etib, Bason degan qabristonga dafn etilgan[5].

Xoja jarroh yodgorlik majmuasi – Qarshi shahridagi me‘moriy yodgorlik (14-asr.).Majmua XIV asrga oid bo‘lib, hozirgi Qarshi shahrining Xudoyzod mahallasida joylashgan. Rivoyatlarga ko‘ra Sohibqiron Amir Temur 14-asr. oxirlarida XIV asr oxirlarida Shom va Iordaniya yerlarini zabt etgan paytda ulug‘ sahobalardan biri Abu Ubayda Omir ibn Abdumoh ibn al-Jarroh qabri xokidan keltirib Qarshi shahrida dafn ettirgan va u yerga maqbara qurdirgan.

Al-Jarroh birinchi bo‘lib "amirlarning amiri ", degan laqab olgan(6.). Maqbara buzilib ketgan. 20-asr.

Rivoyatlarga ko‘ra, Sohibqiron Amir Temur XIV asr oxirlarida Shom va Iordaniya yerlarini zabt etgan paytda ulug‘ sahobalardan biri Abu Ubayda Omir ibn Abdumoh ibn al-Jarroh qabri xokidan keltirib, Qarshi shahrida dafn ettirgan va u yerga maqbara qurdirgan. Al-Jarroh birinchi bo‘lib "amirlarning amiri ", degan laqab olgan(7).

Amir ibn Abdulloh ibn al-Jarroh (583-638) ko‘proq Abu-Ubaydah ibn al-Jarrah nomi bilan tanilgan bu inson Payg‘ambarimizning buyuk izdoshlaridan biri edi. Umar roziyallohu anhu Halifaligi zamonida Musulmon qo‘shinining katta qismida qo‘mondon sifatida ish olib borgan. Umar roziyallohu anhu tomonidan o‘zidan keyin Xalifalik lavozimiga tavsiya etilganlardan biri hisoblanadi. 2-yarmida qayta tiklangan majmua maqbara, ayvon, minoradan iborat. Maqbara to‘rtburchak tarhli, peshtoqgumbazli, pishiq g‘ishtdan qurilgan, bosh peshtog‘i burchaklariga burjlar ishlangan, yon devorlarida mehrob shaklidagi derazalar bo‘lib, panjaralar o‘rnatilgan. Maqbara ichi ganch o‘ymakorligida pardozlangan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, 24.02.2021 yildagi 100-son qarori bilan Turizm salohiyati yuqori bo‘lgan madaniy meros obyektlari ro‘yxatiga kiritilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. „Moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktyabrdagi 846-sonli qarori“.
2. „Moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktyabrdagi 846-sonli qarori“.
3. Qarshi shahrining me‘moriy yodgorliklari, 52-53-betlar
4. Qashqadaryo viloyati davlat arxivi 527-f. Yur.. 4-y/j. 26-27-betlar
5. “Sifot us-Soffa”. A.Mansur tarjimasi. 1-jild 365-bet.
6. Poyon Ravshanov. Qarshi tarixi, Yangi asr avlodi nashriyoti, Toshkent, 2006 — 647 bet-bet. ISBN 5-633-01899-0.
7. Nasriddinov K, Xujayarov U. Qarshi shahrining me'moriy yodgorliklari, Yangi asr avlodi, Toshkent, 2011 — 136-bet. ISBN 978-9943-08-629-6.